

KOMPOZITOR VIKTOR USPENSKIYNI O'ZIGA ROM QILGAN SHARQ

Mahammadjonova Jasmina*Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'at instituti**2- bosqich talabasi**Ilmiy rahbar: Xumoyun Xaydarov**Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'at instituti**katta o'qituvchisi***Kalit so'zlar:** sharq maktabi, folklor, shashmaqom, kompozitor,

O'zbekiston va Turkmaniston xalq artisti, san'atshunoslik fanlari doktori, musiqa etnografi, folklorshunos olim, istedadli kompozitor Viktor Aleksandrovich Uspenskiy ko'p qirrali ijodiy faoliyati bilan XX- asr o'zbek musiqasi tarixida yorqin iz qoldirdi. Viktor Uspenskiy 1879-yilning 31 avgustida Rossiyaning Kaluga shahrida tavallud topdi. Bolaligidan rus va G'arbiy Ovrupo klassik kompozitorlari, o'zbek va qirg'iz xalq musiqasi ijodi bilan qiziqadi. Kompozitor bolaligidan juda istedadli bo'ladi. Musiqaga endi qiziqib yurgan payti ota-onasi kompozitorni sozanda bo'lishiga qarshilik qiladi, va uni Orenburg harbiy maktabida o'qitishadi. Bu harbiy maktabda intizom qattiq bo'lishiga qaramay Uspenskiy musiqa bilan doim shug'ullanib turardi. Damli harbiy orkestrda galikon cholg'usini kontrabas va arfa cholg'ularini chaladi. 1898- yilda bu harbiy maktabni tamomlaydi konservatoriyaga topshirishga harakat qiladi. 1908- yilda Sankt- Peterburg konservatoriyasining kompozitorlik fakultetiga o'qishga kiradi. Lekin sog'ligi ko'tarmaganligi sababli o'qishni davom ettirmaydi. Davolanish uchun Shvetsariyaning Davos va Germaniyaning Leypsig shaharlariga jo'nab ketadi. Joni azoblanayotgan kompozitor musiqani shu xolatida ham tashlab qo'ymaydi, vaqtinchalik Leypsig konservatoriyasida erkin tinglovchi sifatida saboq oladi. Sog'lig'ini tiklab Peterburg konservatoriyasiga qaytadi 1913 yilda bitirib "erkin san'atkor" diplomiga ega bo'ladi. Biroz vaqt o'tib 1 – jahon urishi uni ijod qilishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Uspenskiy ijod qilar ekan ulug' rus kompozitorlaridan Glinka, Musorgskiy, Rimskiy- Korsakov va Borodin partituralarini diqqat bilan kuzatib o'rganar edi. Uning asarlarida Sharqning tabiat manzaralari, yoqimli poeziyasi va oxangdor musiqasi, badiiy obraz topganini ko'rishimiz mumkin. Kompozitor "Ruslan", "Shaxrizoda", "Antar", "Knyaz Igor" asarlarini musiqasidan ta'sirlanib va o'z tassurotlaridan ilhomlanib bir nechta asar yaratadi. Kompozitor Glinka, Borodin, Rimskiy- Korsakov partituralarini o'rganish vaqtida butun klassik kompozitorlarning asarlarida u sharq mavzusini uslub va usullari bilan tasvirlanganini, Yevropa musiqasidan farq qilishini badiiy obrazlar yaratilganligini ko'radi.

1917- yil 20 – sentyabrda "Mahalliy xalq qo'shiqlarini" to'plash va xalq

musiqasini o'rganish uchun Toshkentga keladi. O'sha vaqtlarda o'zbek xalq ijodini to'plash bilan nom chiqargan Ye. Romanovskaya Shunday fikr aytadi, O'rta Osiyo xalqlarining musiqasiga ilmiy nuqtayi nazar bilan qarashdan ko'ra ko'proq oddiy havaskorlar Nazari bilan qaraganlar. Shuning uchun yosh kompozitor O'zbek xalq qo'shiqlarini to'plashga qiziqadi. Toshkentga kelib Turkiston xalqlari musiqasi bilan tanishadi va shunday xulosaga keladi Turkiston xalqlari musiqasi juda boy ekanligini tushunib yetadi. Shuning uchun ham folkloristikaga murojat qiladi va umrining oxirigacha bu faoliyatini O'zbekistonda davom ettiradi. MArosim qo'shiqlari, mavsumiy qo'shiqlar bilan ham qiziqadi. Viktor Uspenskiy Toshkentdagi amaliy va O'rta Osiyodagi amaliy ishini 1918 yilda Sharq Konservatoriyasini ochilishi bilan boshlaydi. O'zbek aholisini professional musiqasiga tortish maqsadida Xalq konservatoriyasini bo'limini ochadi, va ushbu maktabda o'zi rahbarlik qiladi. Konservatoriyada faoliyat olib borayotgan paytda Chormaqomdan yaxshi xabari bor Shorahim Shoimarov bilan tanishadi. Shorahim Shoumarov bilan do'stlashib chormaqomdan ancha qismini yozib oladi Viktor Uspenskiy O'rta Osiyodagi musiqa folklorining plani va Muntazam o'rganilishi uchun bitta markaz bo'lishi kerak degan fikrni ilgari suradi. 1920 yil 28 aprelda ushbu markaz tashkil qilanadi va rahbar bo'lib Viktor Uspenskiy o'zi boshqaradi. Ushbu markaz tashkil qilinishida Mironov ham aktiv qatnashadi. Shu davrdan boshlab musiqa folklorini toplash ishlari boshlanadi. Kompozitor shu davrda maqomlarni yozib olishga qo'l urdi. Turkman va qozoq ashulalri bilan ham qiziqadi. Viktor Uspenskiyning musiqa folklor sohasidagi ishlari yil sayin tobora kengayib, ko'pchilikka ma'lum-mashhur bo'la boshladi. Viktor Uspenskiy Buxoro Shashmaqomlarini yozib olish ishlariga juda katta masuliyat bilan yondashgan bo'lsada, ayrim joylarda nuqsonlarga duch kelamiz, chunki kompozitor maqomlarni hammasini xofizlarni og'zidan emas balki tanburda chalinishida yozib olgan. Uspenskiyning yana bir muhim kamchiligi bo'lgan, u faqat maqomlarning musiqasini yozib olgan so'zlariga ya'ni adabiy she'riy mazmunini yozmay qoldirgan. Uspenskiy maqomlarni shunday nomlagan :

- Iroq.
- Rost
- Dugoh
- Navo
- Buzruk
- Segoh

Uspenskiy tomonidan yozib olingan Shashmaqom N.N.Mironov tahriri ostida bosilib chiqdi. Maqomlarning bosilib chiqishi faqat o'zbek madaniyatiga emas balki sovet musiqa etnografiya faniga ham juda katta hizmat ko'rsatdi.

1925-yilning avgust oyining o'rtalarida V. A. Uspenskiy turkman xalqining musiqa ijodiyotini yozib olish uchun o'zining birinchi ekspeditsiyasini amalga

oshiradi.

Kompozitorga turkman folklorining tarixiy yodgorliklari o'rganish vazifasi yuklatildi. Turkmanistonda uchta musiqiy va etnigrafik ekspeditsiyani amalga oshirdi. Uning birinchi ekspeditsiyasida eng boy materiallar taqdim etildi. Musiqaga oid yirik asarlar yaratildi va chop etildi. Yig'ilgan keng qamrovli materiallar asosida 352 ta xalq musiqasini o'z ichiga olgan ikki jildli nota yozuvlari ya'ni "Turkman musiqasi" nashr etirildi. Bu asarning nashr ettirilishida V.M. Belyayevning xizmatlari xam katta. Kitobning ikkinchi qismida kompozitorning Turkmanistonda qilgan sayohati xadida bayon etilgan. Viktor Uspenskiy tomonidan to'planib nashr qilingan turkman musiqa folkloriga asoslanib ko'p sovet kompozitorlari qayta ishlab ko'plab asarlar yaratadi. Turkmanistonda jami 350 ga yaqin kuy va qo'shiqlar to'playdi. Bu kuylarning ko'pi dutorda ijro etish uchun mo'ljallagan.

Viktor Uspenskiyni ko'p qirrali ijodiy istedodini uchta asosiy kasbiy faoliyati bilan ko'rishimiz mumkin: O'zbekistonda va Markaziy Osiyoda Birinchilardan bo'lib milliy an'analarni yevropa shakl va janrlarida o'zlashtirish namunalarini ko'rsatgan bastakor: zamonaviy ta'limiga asos slogan va uning faoliyatini respublikada davom ettirganlarni tayyorlagan o'qituvchi.

Viktor Uspenskiy yozib olgan ba'zi qo'shiqlarida "Go'ro'g'li", "Shoxsanam bilan G'arib dostonlarining she'ri o'qiladi." Turkman musiqalarini to'plab bo'lgandan so'ng Moskvaga qaytib faoliyatini davom ettiradi.

Xalq ashulalarini yozib olishda kompozitorning juda katta mehnati ketadi issiq havolarga qaramay ma'suliyat bilan yondashadi.

Viktor Uspenskiy Toshkentdagi faoliyatiga kelsak bu yerda yosh kompozitor kinofilmlarga musiqa yozishga qiziqadi va harakat qilib ko'radi. Natijada bu mehnatlari bejiz bo'lmaydi "Meshkopning avlodi nomli" badiiy filmga musiqa yozib beradi. Biroz vaqt o'tgandan so'ng musiqali komediya yozishni niyat qiladi lekin libretto bo'lmaganligi sababli yozib tugatolmaydi. 1930- yillarda Shorahim Shoumarov bilan yana uchrashib chormaqomni qolgan qismlarini yozib oladi. Shoprahim Shoumarovdan "Gulyor Shaxnozni va "Bayot" maqomlarining bir qismini yozib oladi.

1931 yilda o'zbek xalq qo'shiqlarini yozib olish maqsadida Farg'ona vodiysida tashkil qilingan ekspeditsiyada Uspenskiy faol qatnashdi va ularga bosh bo'ldi. Bu ekspeditsiyaning asosiy vazifasi xalq orasida qadimdan aytilib yurgan ashularni emas balki sovet davrida ijod qilingan ashulalarni kolxoz mavzularidagi ashularni yozib olish edi. Shundan so'ng Andijon shahrida Berkinboy Fayziyevdan "Andijon samasi" nomli ashulani yozib oladi. Ko'plab shaharlarga boradi Marg'ilonga borgan payitda xalq teatri xaqida ma'lumotlar to'playdi. Darvozlarni davraga chiqqan payitda "Charx" kuyi chalinadi va ziyrak kompozitor bu kuyni ham yozib oladi. 1932 yilda Mironovning "Музыка таджиков" degan asari bosilib chiqadi. Bu kitobda tojiklarning

musiqasiga doir ma'lumotlarni bayon etadi. Tojiklarning musiqa asbobini xar birini rasvirlab beradi, xalq sozandalarini va ashulachilari tug'risida ma'lumotlar berib o'tadi. Shu kitobda ilova qilingan 58 ta tojik kuylarini tavsiflab beradi. Shu vaqt ichida Viktor Uspenskiy tomonidan professional o'zbek musiqachilaridan ko'plab asarlar yozib oladi. Bular Ichida yiriklaridan quyidagi asrlarni ko'rsatishimiz mumkin: "Bizning qishloq", "Uyg'oning", "Dilrabo", "Dilxiroj", "Zilzila", "Mug'ilchayi dugoh" va boshqa ko'plab asarlarini ko'rsatishimiz mumkin. Bu ashulalardan tashqari "Chorgoh" maqomini yangidan yozib oladi. Bundan tashqari kompozitor ko'plab asarlarini qayta ishlaydi bu asrlar Ichida "Chamanda gul" raqs kuyi, fortepiano bilan jo'r bo'lib aytilish uchun qayta ishlangan. Bu barcha kompozitor tomonidan yozib olingan va simfonik orkestr uchun qayta ishlagan folklore asrlaridan iborat bir kichik to'plam nash etiladi. Bu to'plamda "Akramhon", "Zulayho", "Suluv soch", "Zar kokil" qo'shiqlari kirgiziladi.

Shamsuddin Sharafuddinov(Xurshid) "Farhod va Shirin" dostoni asosida 5 pardali pyesa yozadi. Bu pyesa 1922 yilda ilk marotaba sahna yuzini ko'radi. O'zbekiston Respublikasining 10 yilliga bag'ishlab Uspenskiy "Farhod va Shirin" pyesasiga qaytada musiqa yozib beradi. Yangi prozotanzimning vazifasi shund ediki iolgarigi spektakllardan uning musiqasi unisondan ko'p ovozga ko'chirishdan, xalq cholg'u asboblarni o'rniga simfonik orkestr kirgizishdan iborat bo'lgan. Kompozitor ko'plab yutuqlaridan ilhomlanib 1934 -yilda "Farhod va Shirin" prologidan beshta nomerni: "Bayonchi", "To'liqin", "Naylaram", "Xitoy raqsi" hamda "Dugoh Husayniy" ning beshinchi qismini simfonik orkestr bilan birgalikda ijro ettiradi. 1936 yilda O'zbekistonda o'zbek musiqa san'atining Moskvada bo'ladigan unklugida qatnashishi uchun tayyirgarlikni boshlaydi. Shu o'n kunligda "Gulsara" va "Farhod va Shirin" musiqa drammlarini sahnaga qo'yishni mo'ljallagan. "Gulsara"ning musiqasini qayta ishlash uchun R. Gliyer O'zbekistonga chaqiriladi. "Farhod va Shirin" musiqali drammasiga ham bir necha o'zgarishlar kirgiziladi. 1937- yilda Moskvada o'zbek san'atining o'n kunligi o'tkazildi. Bu o'nkunlikda "Gulsara" va "Farhod va Shirin" katta muvaffaqiyatga erishdi. Bu spektakllarni o'zbek teatrining istedodli kuchlari- Halima Nosiropova, Karim Zokirov, raqslarini Tamarahonim ijro qildi. Orkestrga esa Muhtor Ashrafiy boshchilik qildi.. Viktor Uspenskiy 1940 – yilda xofiz va sozandalardan 60 taga yaqin yozib oldi bulardan 20 ga yaqini katta ashula edi. Yana bir ulkan ishlaridan "Muqanna" drammasiga yozilgan tegishli qismini katta simfonik orkestrga moslangan syuitaga aylantirdi. Kompozitorni9ng yan abir asari "O'zbekcha poema- rapsodiya" ning musiqasida o'zbek xalq musiqasini milliy xususiyatlari yaqqol sezilib turadi. Yirik asarlaridan biri "Turkmancha kaprichchio" asarida esa Turkmaniston milliy san'ati xaqida bayon etilgan. Uning yozib olgan yirik kuylaridan biri bu Buxoro maqomlari va Farg'ona- Toshkent maqommlari hisoblanadi. Uning yozib olgan asarlari Ichida Toshkent va Farg'ona Vodiysida

ko‘plab janrlardagi ashulalrni to‘plashga muvaffaq bo‘lgan. Bular Ichida ishqiy -lirik ashulalar, o‘yin ashulalri, yallalari, katta ashular, bolalar qo‘shiqlari va qo‘g‘irchoqbozlar qo‘shiqlari ham bo‘lgan. Viktor Uspenskiyninh o‘zbek folklorining to‘plashidan maqsadi shu ediki o‘zbek folklorini xozirgi zamon sovet musiqasidan foydalanishga va ijodiy tarannum etishdan iborat bo‘lgan. Keyinchalik kompozitor opera yozish bilan ancha vaqt shug ullanadi.

Keyingi yillarda kompozitorning ikki asariga e‘tiborimizni qaratishimiz lozim bular: “Avji turk ” va Buxoro xalq qo‘shig‘ini rivojlantirishdagi roli” nomli asarlaridir . Bu asarlarda kompozitor demokratik xususiyatlar borligini aytib o‘tadi, bu avj katta avjlarning bir turi ekanligi va maqomlarni yaxshi bilgan katta xpfizlargina emas, xatto keng dehqonlar ommasi ham ashula aytganda shunday avj qilishlarini o ‘qtirib o‘tadi va ta‘kidlaydi.

Kompozitorning umumiy yozgan va to‘plagan asarlariga kelsak simfonik asarlar uchun ko‘plab asarlar “O‘zbekcha rapsodiya”, “ Navoiy xotirasiga bag‘ishlangan lirik poema ”, “Muqanna syuitasi”, “Farhod va Shirin” musiy – dramatik asar, bir necha vocal asarlar, fortepiano va xor uchun asarlar . Musiqa – etnografiya asarlaridan “Shashmaqom”, “Turkmenskaya muzika”; Dugoh Husayniy (5 qism); Chorgoh(5 qism); Nasrullo(5 qism); Bayot (besh qism). Bu asarlarni yozib olish uchun kompozitor juda katta kuch va mehnatini sarflaydi. Bir necha davlatlardan bir necha kompozitorlardan yozib oladi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkin kompozitor Viktor Uspenskiy asosiy musiqiy faoliyatini O‘zbekistonda olib borgan. O‘zbekistondagi musiqiy faoliyatini asosiy mazmuni shunday ediki musiqa ta‘limining tez rivojlanishi o‘quvchilarning musiqa nazariyasini hamda ijrovchilik texnikasini oshirish uchun tezroq yordam beradigan o‘quv- metodika qurollarini yaratish va musiqa ta‘limini takomillashtiruchi asarlar yaratishni asosiy maqsad qilib qo‘ygan va yaratgan. Musiqa ta‘limini hamda nota yozuvini o‘zbek xalqining ommasiga sungdirish uchun turli xil jadvallar o‘ylab chiqardi.